

SUN'IY INTELEKT ORQALI TIL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Rahimberdiyeva Dilnavozxon Bahromjon qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: Jumayeva Umida Abdurahim qizi

Annotatsiya. ushbu maqolada sun'iy intellektning (AI) til kompetensiyasini rivojlantirishdagi roli ko'rib chiqiladi. AI vositalari (chat-botlar va ilovalar) individual o'rganish, tezkor fikr-mulohaza va qulay resurslar taqdim etadi. Shu bilan birga, jonli muloqotning yetishmasligi, texnologiyaga qaramlik va ma'lumotlar xavfsizligi muammolari mavjud. Xulosa shuki, AI samarali vosita, lekin u an'anaviy ta'limni to'liq almashtirmasligi kerak.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, til kompetensiyasi, til o'rganish, AI vositalari, ta'lim texnologiyalari, shaxsiylashtirilgan ta'lim, AI muammolari, AI imkoniyatlari

Аннотация. В статье рассматривается роль искусственного интеллекта в развитии языковой компетенции. Инструменты ИИ обеспечивают персонализированное обучение, быструю обратную связь и доступ к ресурсам. Однако существуют проблемы: недостаток живого общения, зависимость от технологий и вопросы конфиденциальности. Делается вывод, что ИИ эффективен как вспомогательный инструмент, но не заменяет традиционное обучение.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, языковая компетенция, изучение языка, инструменты ИИ, образовательные технологии, персонализированное обучение, проблемы ИИ, возможности ИИ

Absract. This article examines the role of artificial intelligence in developing language competence. AI tools provide personalized learning, instant feedback, and easy access to resources. However, challenges include lack of real communication, overreliance on technology, and data privacy concerns. The study concludes that AI is effective as a supportive tool but should not replace traditional learning methods.

Keywords: Artificial intelligence, language competence, language learning, AI tools, educational technologies, personalized learning, AI challenges, AI opportunities

Kirish. Hozirgi jadallik bilan rivojlangan zamonda sun'iy intellekt(AI) hayotimizning muhim qismiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari har bir javhada keng qo'llanilmoqda. Axborot-texnologiyalarining jadal rivojlanishi sun'iy intellektning shakllanishi va turli sohalarga kirib kelishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, til o'rganish sohasida uning ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, X.Chan va Hwang (2020) tadqiqotlarida ta'lim jarayonida AIning qo'llanilishi o'quvchilarning motivatsiyasi va natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. XXI asrga kelib ta'lim jarayonlarini sun'iy intellektsiz tasavvur qilish qiyin. Xususan, til o'qitish metodlarining rivojlanishida AI muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Til kompetensiyasi - tilni to'g'ri va samarali ishlata olish qobiliyatidir. Bu grammatika, lug'at, gapirish, tinglash, o'qish va yozish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Mashhur tilshunos Noam Chomsky fikriga ko'ra, til kompetensiyasi inson ongidagi til qoidalari haqidagi bilimdir. Til kompetensiyasini rivojlantirish juda muhim, chunki u real hayotda samarali muloqot qilish, akademik muvaffaqiyatga erishish va global miqyosda ishtirok etish imkonini beradi. Kuchli til

kompetensiyasi shuningdek, kognitiv ko'nikmalar va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Sun'iy intellekt esa bu qobiliyatni o'stirishni osonlashtirdi.

Sun'iy intellekt bu- inson aqlini talab qiladigan vazifalarni bajarishga qodir tizimlarni yaratishga bag'ishlangan informatika sohasi. U ta'lim sohasiga kirib kelib, odamlarning tillarni o'rganish usullarini tubdan o'zgartirib jarayonni qulayroq va qiziqarli qildi. Chatbotlar, virtual o'qituvchilar, grammatika tekshiruvchilari va til o'rganish ilovalari talabalar tomonidan keng qo'llanilmoqda. AI vositalari real vaqtda fikr-mulohaza beradi, xatolarni tuzatadi va o'rganuvchining darajasiga moslashadi. Masalan, talaba AI chatbot bilan gapirish orqali gapirish ko'nikmasini rivojlantirishi yoki yozgan matnini avtomatik tekshirishi mumkin. Bu texnologiyalar istalgan vaqtda mashq qilish imkonini beradi, o'rganishni moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan qiladi. AI shuningdek, dunyoning turli manbalariga kirish imkonini berib, til ko'nikmalari bilan birga madaniy tushunchalarni ham rivojlantiradi.

Mashinalar tomonidan namoyon etilayotgan aql-zakovat "sun'iy intellekt" deb ataladi. Inson va hayvon aqlidan farqli o'laroq, AI'da hissiyot yoki ong mavjud emas. Shunga qaramay u mukammal vazifalarni bajara oladi va tahlil qilish, nutqni tanish, naqsh asosida qarorlar qabul qilish imkoniyatlariga ham ega. Til o'rganishni AI yanada samarali, moslashtirilgan qilib, o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashadi. Shu bilan birga, ko'plab AI vositalari darslarni bepul, an'anaviy darslarga qaraganda ancha arzonroq yoki tekin taqdim etadi, bu esa odatiy kurslarga qatnasha olmaydigan o'rganuvchilar uchun imkoniyat yaratadi.

AI til o'rganishda inqilobiy o'zgarishlar olib kirgan bo'lsada, u ba'zi bir kamchiliklardan holi emas. Avvalo, sun'iy intellekt asosidagi platformalar (masalan, Duolingo va Babbel) so'z boyligini oshirishda samarali bo'lishiga qaramay, pragmatik kompetensiyani shakllantirishda ojizlik qiladi. Tadqiqotchi Dizon (2020) ta'kidlaganidek, bunday tizimlar insoniy suhbatlardagi ijtimoiy-pragmatik nozikliklarni, xususan, kinoya, odob strategiyalari va kontekstga qarab o'zgaruvchi nutq holatlarini yetkazib bera olmaydi. Chunki til nafaqat so'zlar jamlanmasi, balki vaziyatga qarab moslashuvchan jonli jarayondir. AI sentiment tahlili orqali his-tuyg'ularni aniqlashga urinmasin, baribir insoniy hazil, madaniy kontekst va tana harakati kabi muhim muloqot elementlarini takrorlay olmaydi.

Bundan tashqari, til o'rganishning eng muhim bosqichi bo'lgan talaffuz va aksent masalasida ham sun'iy intellektning jiddiy cheklovlari mavjud. Ko'plab AI vositalari nutqni tanish funksiyasiga ega bo'lsa-da, ular doim ham xatolarni aniq tuzatmaydi. Moussali va Cardoso (2020) kabi tadqiqotchilarning fikricha, Google nutq tanish tizimi kabi vositalar so'z talaffuzini "yeterlicha yaqin" deb qabul qilishi oqibatida o'quvchining xatolari tuzatilmasdan, aksincha, mustahkamlanib qolishi mumkin. Shuningdek, AI modelining ovozi tabiatan sun'iy bo'lgani sababli, o'rganuvchi ona tili vakillariga xos bo'lmagan noto'g'ri aksentni o'zlashtirib olish xavfi yuqori bo'ladi.

Xulosa. Sun'iy intellekt til kompetensiyasini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratib, o'rganish jarayonini yanada oson va qulay qildi. U moslashtirilgan ta'lim, tezkor fikr-mulohaza va keng resurslar bilan ta'minlaydi. Biroq, insoniy muloqot, madaniy kontekst va real kommunikativ vaziyatlarni to'liq aks ettira olmasligi, shuningdek texnologiyaga qaramlik va ma'lumotlar xavfsizligi kabi muammolar ham yo'q emas.

Shu sababli, eng samarali yondashuv - sun'iy intellektni an'anaviy ta'lim bilan uyg'unlashtirishdir. AI o'qituvchini almashtirmaydi, balki uni qo'llab-quvvatlovchi

vosita sifatida xizmat qiladi. Faqat shu muvozanat orqali til kompetensiyasini to'liq rivojlantirish imkoniga ega bo'lish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chomsky, N. (1965). *Aspects of the Theory of Syntax*. Cambridge, MA: MIT Press.
2. Dizon, G. (2020). Evaluating intelligent personal assistants for L2 listening and speaking development. *Language Learning & Technology*, 24(1), 16–2
3. Godwin-Jones, R. (2018). Using mobile technology to develop language skills. *Language Learning & Technology*, 22(3), 1–17.
4. Moussalli, S., & Cardoso, W. (2020). Intelligent personal assistants: Can they understand and be understood by L2 learners? *Computer Assisted Language Learning*, 33(8), 865–890.